O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

Mavzu: Elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun to’rt o’lchovli fazoda chegaralanmagan sohada Koshi masalasi

5A130101 «Matematika» mutaxassisligi

Matematika bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: katta o’qituvchi. Z.MALIKOV

Magistrant: Sh.Choriyev

“Matematik fizika va funksional

analiz” kafedrasi mudiri dots. A.M.Xalxo‘jayev

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

Kirish

Bu dissertatsiya ishiga to‘rt o‘lchovli elliptik sistema uchun qo‘yilgan Koshi masalasini chegaralanmagan sohada yechishdan iborat. Chegaralanmagan sohada o‘suvchi vektor funksiyaning qiymati soha chegarasining bir qismida berilgan bo‘lsa uning qiymatini sohaning ichida topish masalasi qaralgan.

Dissertatsiya ishida elliptik tipdagi tenglamalar sistemasi uchun qo’yilgan Koshi masalasining yechimi haqida bag’ishlanganda Adamar misoli ko’satadiki elliptik tipdagi tenglama va tenglamalar sistemasi uchun qo’yilgan Koshi masalasi turg’un bo’lmaydi. Bunday masalalarni yechish uchun yechimlar to’plamini kompakt to’plamgacha qisqartirsak u holda Tixonov manosida shartli korrekt masala bo’ladi. Analitik funksiyalarni sohaning chegarasining bir qismidagi qiymatidan foydalanib sohada topish masalasi Karleman, Goluzin Krilov va boshqalar tomonidan qaralgan. Xuddi shunday turdagi masalalar Laplas tenglamasi uchun ham qo’yish mumkin. Bunday masalalarga Laplas tenglamasi uchun qo’yilgan Koshi masalasi deyiladi. Bu masalalarni akademik M.M.Lavrentev, akademik Ivanov, prof Ayzenberg, Tarxanov va boshqalar shug’ullangan.

Laplas tenglamasiga qo’yilgan Koshi masalasini yechishda sohaning chegarasining bir qismida noma’lum funksiya va uning normal bo’yicha hosilasi berilgan bo’ladi. Demak shunday funksiyalar yechimini aniqlash mumkinki, u ikkita garmonik funksiyalarning yig’indisidan iborat bo’lib, chegaraning qolgan qismidan olingan integral cheksiz kichik bo’lsin. Bunday funksiyalarga Karleman funksiyasi deyiladi.

1.Dissertatsiyaning maqsadi va vazifasi.

To‘rt o‘lchovli fazoda elliptik sistema uchun qo‘yilgan Koshi masalasini chegaralanmagan sohada yechishni regulyarizasiyasini topish masalasi dissertatsiyaning asosiy maqsadidan iborat. Chegaralanmagan sohada o‘suvchi vektor funksiyaning chegaraning bir qismidagi vektor funksiyani qiymatini bilgan holda qolgan qismida qiymati nolga yaqin bo’lgan Karleman matrisasini tuzish ishning asosiy fazifasidir.

2.Masalaning dolzarbligi.

Chegaralangan sohada integral formulani bilgan holda chegaralanmagan sohada o‘suvchi vektor funksiyaning sistemasining yechimlarida integral formulani o‘rinliligini ko‘rsatish, hamda vektor funksiyani soha chegarasining bir qismidagi qiymatidan foydalanib sohaning ichidagi qiymatini aniqlash masalasi ishning dolzarbligini ifodalaydi. Chunki bunday masalani yechish uchun regulyarizasiyalanuvchi yechimlar oilasini tuzishga to‘g’ri keladi. Bu yechimlar oilasi parametrga bog’liq bo‘lib parametrning cheksizlikga intilishiga yechimlar oilasi aniq yechimga intilishini ko‘rsatish lozim.

3.Muammoning ishlab chiqarish darajasi.

Elliptik tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasi korrekt bo‘lmagan masalalar qatoriga kiradi, ya’ni bunday masalalarni yechimi turg’un emas. Agar yechimlar sinfini kompaktlar to‘plamiga qisqartirsak u holda bunday masalalar shartli korrekt masalasiga kiradi.

4.Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Koshi – Riman sistemasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasining korrekt bo‘lmasligini isbotlovchi Adamar misoli mavjud. Elliptik sistemalar uchun ham qo‘yilgan Koshi masalasi nokorrekt bo‘ladi. O‘suvchi vektor funksiya uchun ham chegaralanmagan sohada integral formula asosiy rol o‘ynaydi. Integral formula ma’lum bo‘lsa u holda Koshi masalasi regulyarizasiyasini tuzish mumkin.

5.Tadqiqot predmeti.

Matematik fizik tenglamalari va sistemalariga qo‘yilgan chegaraviy masalalar asosan elliptik tipli tenglamalar qatoriga kiradi. Demak dissertatsiyaning tadqiqot predmeti sifatida chegaraviy masalalarni yechish hisoblanib uning tipini aniqlash va unga to‘g’ri keladigan yechish usuli hisoblanadi.

6.Tadqiqotning obyekti.

Dissertatsiyaning asosiy tadqiqot obyekti elliptik tipli tenglamalar sistemasi bo‘lib bu sistemaning xaraktristik matritsasi shunday matritsadan iboratki uning ermitli qo‘shmasi bilan ko‘paytmasi Laplas operatori bilan faktorizasiyalanadi. Bu sistema uchun integral formulaning fundamental yechimlar sistemasi Laplas operatorining fundamental yechimlari orqali ifodalanadi.

7.Ilmiy-amaliy ahamiyati.

Elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechishga Karleman matritsasi tuzishda u orqali yechim oshkor ravishda ifodalanadi. Bunday fundamental yechimlar sistemasi orqali ifodalanuvhi yechimlar sistemasi regulyarizasiyalovchi yechimlar deyiladi. Bu ishda shunday yechimlar sistemasi tuziladi. U yechimlar parametrga bog’liq bo‘ladi. Parametr esa taqribiy yechimning bahosi orqali ifodalanadi. Shuning uchun bu amaliy axamiyatga egadir.

8.Ishning tuzilishi.

Magistrlik dissertatsiyasi uch bob va o‘n bitta paragraf, xulosa, adabiyotlar ruyxatidan iborat.

Birinchi bobda elliptik tipdagi tenglamalar va uning xossalari keltirilgan.

Birinchi paragrafda elliptik tipdagi tenglamalar uchun asosiy chegaraviy masalalar.

Asosan stasionar bo‘lgan, ya’ni vaqtga bog’liq bo‘lmagan fizik prosesslarini, ya’ni issiqlikning tarqalishi to‘lqinning harakati, maydon potensialining tortilish kuchi kabilarni tekshirishda asosan elliptik tipdagi tenglamalarga keltiriladi. Ya’ni yuqoridagi qaralgan barcha tenglamalarda qatnashayotgan noma’lum funksiya vaqt t ga bog’liq bo‘lmaydi. [1]

Bu xildagi tenglamalarga Laplas $\Delta u = 0$ va Puasson $\Delta u = f$ tenglamalari misol bo'ladi. Agar Laplas tenglamasida qatnashayotgan noma'lum funksiyaning ko'rinishi

$$u = u(x_1, x_2, ..., x_n) \quad \Delta u = \frac{\partial^2 x}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 x}{\partial x_2^2} + ... + \frac{\partial^2 x}{\partial x_n^2}$$

Laplas tenglamasining qanoatlantiradigan funksiyaga umuman olganda garmonik funksiya deb yuritiladi.

Ikkinchi paragrafda Grin formulalari va Garmonik funksiyalarning integral munosabatlari.

Garmonik funksiyalarning xossalarini o'rganish uchun avvalo ularning integral munosabatlarini qarab chiqamiz. Bu integral munosabatlarini keltirish uchun esa. Grin formulalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Grin formulalarining o'zlari esa Ostogradskiy formulasining xususiy hollaridan iboratdir. Ostogradskiy formulasining ma'nosi esa quyidagichadir.

Faraz qilaylik P, Q, R funksiyalar $S + T$ yopiq sohada o'zining bir tartibli hosilalari bilan uzluksiz funksiyalardan iborat bo'lsin. Agarda S sirtda o'tkazilgan tashqi normal n ni Ox, Oy, Oz o'qlar bilan tashkil etgan burchaklari mos holda

$$\alpha = (n, x); \quad \beta = (n, y); \quad \gamma = (n, z)$$

lardan iborat bo'lsin. Bu holda Ostogradskiy formulasi quyidagicha edi.

$$\iiint_T \left[\frac{\partial P}{\partial x} + \frac{\partial Q}{\partial y} + \frac{\partial R}{\partial z} \right] d\tau = \iint_S (P\cos\alpha + Q\cos\beta + R\cos\gamma) ds \quad (1.3.1)$$

Endi quyidagi formuladan foydalanib,

$$\iiint_T [u\Delta v - v\Delta u] d\tau = \iint_S \left[u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial v}{\partial n} \right] ds \qquad (1.4.1)$$

Garmonik funksiyalarning qaralayotgan soha ichidagi ixtiyoriy nuqtadagi qiymatlarini integral orqali ifodalash mumkinligini qaraymiz. Buning uchun esa faraz qilaylik (1.4.1) tenglamada qatnashayotgan $u = u(M)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin. Ya'ni bu funksiya $T+S$ yopiq sohada o'zining birinchi tartibli hosilasi bilan birgalikda uzluksiz hamda T sohaning ichida barcha argumentlari bo'yicha ikkinchi tartibgacha differensiallanuvchi garmonik funksiyadan iborat bo'lsin.

Uchinchi paragrafda doira uchun Dirixlening ichki va tashqi masalalari. Puasson integrali.

Endi $\Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = 0$ Lappas tenglamasi uchun Dirixle masalasini qarab chiqamiz.

MASALA: R radiusli doirada (ichkarida yoki tashqarida) shunday bir $u = u(x, y)$ funksiyani topish kerakki natijada bu funksiya quyidagi chegaraviy shartlarni $U|_R = f$ qanoatlantirsin, ya'ni: quyidagi masalaga keladi

$$\left.\begin{aligned} &\Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} \\ &u / R = f \end{aligned}\right\} = 0 \qquad (1.5.A)$$

Bundagi f doiraning konturida berilgan funksiyadan iboratdir.

Endi (1.5.A) ko'rinishidagi masalaning yechimini topamiz. Bu uchun esa Lappas tenglamasining qutb koordinata, sistemasidan foydalanamiz,

ya'ni:

$$\Delta u(p, \varphi) = \frac{1}{p^2} \frac{\partial}{\partial p}\left(p \frac{\partial}{\partial p}\right) + \frac{1}{p^2} \frac{\partial^2 u}{\partial \varphi^2} = 0 \qquad (1.5.1)$$

To 'rtinchi paragrafda garmonik funksiyalarning sodda xossalari.

Endi yuqoridagi garmonik funksiyalarga tegishli bo'lgan formulalardan foydalangan holda shu funksiyalarning ba'zi soda xossalarini qarab chqamiz. Buning uchun esa quyidagi xossalarni alohida – alohida qaraymiz.

Xossa – 1: Agar $u = u(M)$ va $v = v(M)$ o‘zining funksiyalar S+T yopiq sohada o‘zining 1 – tartibli xosilasi bilan birga uzluksiz, hamda T sohaning ichida garmonik funksiyadan iborat bo‘lsa, u holda quyidagi tengliklar o‘rinlidir.

$$\iint_S \frac{\partial u}{\partial n} d\tau = 0; \quad \iint_S \frac{\partial v}{\partial n} d\tau = 0$$

Ikkinchi bobda to‘rt o‘lchovli Koshi-Riman sistemasi uchun sophada Koshi masalasi keltirilgan.

Birinchi paragrafda matrisalar sinfi keltirilgan.

Agar $R^n - n$ o‘lchovli $[5]$

$$x = \begin{Vmatrix} x_1 \\ .... \\ x_n \end{Vmatrix} \qquad \text{va} \qquad y = \begin{Vmatrix} y_1 \\ .... \\ y_n \end{Vmatrix},$$

$C^n - n$ o‘lchovli, kompleks maydonlar fazosidan olingan bo‘lsin.

$$z = \begin{Vmatrix} z_1 \\ .... \\ z_n \end{Vmatrix}, \quad \text{o‘zgaruvchilar kompleks fazosi;}$$

$$\frac{\partial}{\partial x} = \begin{Vmatrix} \frac{\partial}{\partial x_1} \\ .... \\ \frac{\partial}{\partial x_n} \end{Vmatrix}, \qquad \partial x = \begin{Vmatrix} dx_1 \\ .... \\ dx_n \end{Vmatrix} \qquad \text{va} \qquad E(x) = \begin{Vmatrix} x_1 ... 0 \\ ..... \\ 0 .... x_n \end{Vmatrix}$$

Agar $I = (i_1 ... i_q), \quad 0 \le q \le n$ multindeks.

Ikkinchi paragrafda birinchi tartibli elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun integral formula keltirilgan.

Xususiy hosilalardagi birinchi tartibli

$$D(\frac{\partial}{\partial x}) f(x) = 0 \qquad (2.2.1)$$

chiziqli differensial tenglamalar sistemasini qaraymiz, uning xarakteristik matrisasi

$$D(x) \in A_{k\times l}(p(x), x) \qquad (2.2.2)$$

$$f(x) = \begin{vmatrix} f_1(x) \\ \dots \\ f_l(x) \end{vmatrix} \qquad (2.2.3)$$

esa kompleks qiymatli umumiy holda vektor funksiya .

2.2.1-teorema. $G \in R^n$ - silliq bo‘lakli chegarali chegaralangan soha va (2.2.5) $f(x) \in C^1(G) \cap C(\bar{G})$ vektor funksiya (2.2.2) shartda (2.2.1) sistemaning yechimi bo‘lsin , u holda

$$\int_{\partial G} M(y-x) f(y) = \begin{cases} f(x), \ x \in G, \\ 0, \quad x \notin \bar{G} \end{cases} \qquad (2.2.10)$$

(2.2.7) formuladan va [3] natijadan xususan, (2.2.1) sistemaning $C^1(G)$ sinfdagi yechimi (2.2.2) shart bajarilganda haqiqatdan, G sohada analitik funksiyalar bo‘ladi. Bundan va (2.2.7) misoldan ko‘rinadiki, (2.2.1) sistemaga (2.2.2) shartning qo‘yilishi bu sistema elliptik bo‘lishiga teng kuchli.

Uchinchi paragrafda birinchi tartibli elliptik tipli tenglamalar sistema uchun misollar keltirilgan.

2.3.1-misol.

$(n\times n)$ matrisa $\|a_{ij}\| a_{ij} + a_{ji} = 0, \quad i = j, \quad a_{ij} = 1$ (2.3.1)

shartni qanoatlantiruvchi $a_{ij}, \quad i, j = \overline{1,n}$ kompleks sonlardan iborat bo‘lsin.

U holda $(n\times 1)$ matrisa

$$D(x)=\begin{Vmatrix}\sum_{j=1}^{n} a_{ij}x_j \\ ..... \\ \sum_{j=1}^{n} a_{jn}x_j\end{Vmatrix}\in A_{n\times 1}(|x|^2,x) \qquad (2.3.2)$$

chunki (2.3.1) shartga ko‘ra $\Gamma D(x)=\|x_1...x_n\|$ deb olish mumkin.

To‘rtinchi paragrafda birinchi tartibli elliptik tipli tenglamalar sistema uchun Morere teoremasi keltirilgan.

Agar :

1) $(l\times l)-$ vektor $f(x)$ funksiya $G\in R^n$ sohada uzluksiz;

2) $D(x)\in A_{k\times l}(p(x),x)-$ matrisa;

3) ixtiyoriy yopiq bo‘lakli silliq σ bilan chegaralangan chekli sohasi bilan kiruvchi S sirt uchun

$$\int_{\sigma}(*D(\partial y))f(y)=0$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa , u holda $f(x)$ (2.4.1) sistemaning har bir $x\in G$ nuqtada yechimi bo‘ladi.

Uchinchi bobda asosiy bob hisoblanib, elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun to‘rt o‘lchovli fazoda chegaralanmagan sohada Koshi masalasi keltirilgan.

Birinchi paragrafda To‘rt o‘lchovli elliptik sitema va unga qo‘yilgan Koshi masalasi ko‘rsatilgan.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz.

R^n-n o‘lchovli Evklid fazosidan olingan bo’lib, bunda

$$x=\begin{Vmatrix}x_1\\ ....\\ x_4\end{Vmatrix} \quad \text{va} \quad y=\begin{Vmatrix}y_1\\ ....\\ y_4\end{Vmatrix}$$, vektorlar bo‘lsin.

C^n-n o‘lchovli, kompleks maydon bo’lib,

$$z = \begin{Vmatrix} z_1 \\ .... \\ z_4 \end{Vmatrix},$$ o‘zgaruvchilar kompleks fazosidagi vektor bo‘lsin.

$$\frac{\partial}{\partial x} = \begin{Vmatrix} \frac{\partial}{\partial x_1} \\ .... \\ \frac{\partial}{\partial x_n} \end{Vmatrix}, \qquad \partial x = \begin{Vmatrix} dx_1 \\ .... \\ dx_n \end{Vmatrix} \qquad \text{va} \qquad E(x) = \begin{Vmatrix} x_1 ...0 \\ ..... \\ 0....x_n \end{Vmatrix}$$

Bu yerda $E(x)$ dioganal matritsa.

Ikkinchi paragrafda chegaralanmagan sohada to‘rt o‘lchovli elliptik sistema uchun integral formula ko‘rsatilgan.

Faraz qilaylik $G \subset R^{(4)}$ - 4- o‘lchovli fazodan olingan chegaralangan soha bo‘lib chegarasi silliq sirtdan iborat bo‘lsin.

G sohada quyidagi tenglamalar sistemasini qaraymiz

$$D\left(\frac{\partial}{\partial x}\right)u(x) = 0 \qquad (3.2.1)$$

Bu yerda $D(x^T)$ xaraktristik matritsa $D(x^T) \in A_{cx_n}(x)$ ya’ni $D^*(x^T)D(x^T) = E(|x|^2 \cdot u^0)$

Bu qaralayotgan sistemani qanoatlantiruvchi $U(x)$ vektor funksiya garmonik funksiya bo‘lib, (3.2.1) sistemaning yechimidan iboratdir.

Uchinchi paragrafda to‘rt o‘lchovli elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun chegaralanmagan sohoda Koshi masalasining regulyarizasiyasi ko‘rsatilgan.

Faraz qilamiz G soha chegarasi S silliq sirt cheksizlikka intiluvchi va $y_4 = 0$ tekislikdan iborat bo‘lib $0 < y_n < h, \quad h = \frac{\pi}{\rho}, \quad \rho > 0$ qatlamda joylashgan chegaralanmagan soha bo‘lsin.

Teorema 2.1.2. Faraz qilamiz $u(y)$ vektor funksiya bo’lib G_ρ - ning ichida to‘rt o‘lchovli elliptik sistemasini qanoatlantirib, uzluksiz bo’lsin.

Agar:

$$|u(y)| \le 1, \quad y \in T = \{y_u = 0\}$$

bo‘lib

$$|u(y) - u_\sigma(y)| \le \delta, \quad 0 < \delta < 1$$

uchun uzluksiz yaqinlashishidan $y \in S$ - lar uchun

$$u(x) = \int_{\partial G_\rho} N_\sigma(y,x) u(y) ds_y, \quad x \in G_\rho$$

bo‘lsa, u holda

$$|u_\sigma(x) - u(x)| \le C(x) \bar{C}(\sigma) \sigma^{\frac{x_u}{y_u}}$$

Tengsizlik bajariladi. Bu yerda

$$y_u^0 = \max_{y \in s} y_u$$

Natija:

$$\lim_{\sigma \to 0} u_\sigma(x) = u(x) : \quad x \in G_\rho$$

G_ρ - ning har bir kompaktida tekis bajariladi.

I – BOB. Elliptik tipdagi tenglamalar va uning xossalari.

1.1-§. Elliptik tipdagi tenglamalar uchun asosiy chegaraviy masalalar.

Asosan stasionar bo‘lgan, ya’ni vaqtga bog’liq bo‘lmagan fizik prosesslarini, ya’ni issiqlikning tarqalishi to‘lqinning harakati, maydon potensialining tortilish kuchi kabilarni tekshirishda asosan elliptik tipdagi tenglamalarga keltiriladi. Ya’ni yuqoridagi qaralgan barcha tenglamalarda qatnashayotgan noma’lum funksiya vaqt t ga bog’liq bo‘lmaydi. [1]

Bu xildagi tenglamalarga Laplas $\Delta u = 0$ va Puasson $\Delta u = f$ tenglamalari misol bo‘ladi. Agar Laplas tenglamasida qatnashayotgan noma’lum funksiyaning ko‘rinishi

$$u = u(x_1, x_2, ..., x_n) \quad \Delta u = \frac{\partial^2 x}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 x}{\partial x_2^2} + ... + \frac{\partial^2 x}{\partial x_n^2}$$

Laplas tenglamasining qanoatlantiradigan funksiyaga umuman olganda garmonik funksiya deb yuritiladi.

Quyidagi belgilashlar kiritamiz.

T n-o‘lchovli fazoda olingan sohadan iborat bo‘lsin. $\bar{n}$ – tashqi birlik normal.

Ta’rif: S sirt bilan chegaralangan T sohada $u = u(x, y, z)$ funksiya o‘zining barcha argumentlari bo‘yicha 2 tartibgacha differensiallanuvchi funksiyadan iborat bo‘lib, bu funksiya shu sohaning barcha nuqtalarida Laplas tenglamasini qanoatlantirsa, u funksiyaga garmonik funksiya deyiladi. Bu funksiya $u = u(x, y, z)$ funksiya chegaralanmagan T sohada garmonik deb yuritiladi, agarda shu chegaralanmagan sohaning barcha nuqtalarida ikkinchi tartibgacha differensiallanuvchi bo‘lib, shu chegaralanmagan sohadagi nuqtaning cheksizcha

M intilganda funksiyaning shu nuqtadagi qiymati nolga tekis intilsa, ya'ni $\forall E \succ 0 \quad \exists A \succ 0$ bo'lsaki, buning natijasida koordinata boshida shu M nuqtagacha bo'lgan masofa $\tau \geq A$ sondan katta bo'lganda funksiyaning shu nuqtadagi qiymati $|u(M)| \leq E$ bo'lsa, endi garmonik funksiyalarga tegishli quyidagi sodda lemmalarni qaraymiz.

1-Lemma:

$$u = u(x,y,z) = \frac{1}{(x-x_0)^2 + (y-y_0)^2 + (z-z)^2} = \frac{1}{r}$$
$$r = (x-x_0)^2 + (y-y_0)^2 + (z-z)^2$$

Funksiya uch o'lchovli fazodagi M_0 va M nuqtalar orasida masofani bildiradi. Funksiya uch o'lchovli fazodagi $M_0 = (x_0, y_0, z_0)$ nuqtalardan tashqari barcha nuqtalarda garmonik funksiyadan iboratdir. Ya'ni

$$\Delta(1/r) = \partial^2(1/r)\partial x^2 + \partial^2(1/r)\partial y^2 + \partial^2(1/r)\partial z^2 = 0$$

Shu sababli $u(x,y,z) = 1/r$ funksiyaga Laplas tenglamasining fundamental yechimi deyiladi.

Isbot: Haqiqatan $M_0 \neq M$ bo'lganligi sababli

$$r = (x-x_0)^2 + (y-y_0)^2 + (z-z)^2$$

dan tenglik xossalarini hisoblasak quyidagilarga kelamiz.

$$\partial r / \partial x = (x-x_0)/r, \quad \partial r / \partial y (y-y_0)/r, \quad \partial r / \partial z = (z-z_0)/r$$

Endi $u = 1/r$ funksiyadan tegishli xossalarni hisoblaymiz.

$$\frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial x} = \frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial r} \cdot \frac{\partial r}{\partial x} = -\frac{1}{r^2} \cdot \frac{x-x_0}{r} = \frac{x-x_0}{r^2}$$
$$\frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial y} = \frac{x-x_0}{r^3}; \quad \frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial y} = \frac{y-y_0}{r^3}; \quad \frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial z} = \frac{z-z_0}{r^3};$$

$$\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}=\frac{\partial}{\partial x}\left[-\frac{\partial\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial x}\right]=-\frac{\partial}{\partial x}\left[\frac{x-x_0}{r}\right]=$$

$$=\frac{r^3-(x-x_0)3r^2\frac{\partial r}{\partial x}}{r^6}=\frac{r^3-3(x-x_0)r^2\left(\frac{x-x_0}{r}\right)}{r^6}=-\frac{1}{r^3}+\frac{3(x-x_0)^2}{r^5}$$

Xuddi shuningdek, quyidagilarga kelamiz.

$$\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial y^2}=-\frac{1}{r^3}+\frac{3(y-y_0)^2}{r^5}$$

$$\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial z^2}=-\frac{1}{r^3}+\frac{3(z-z_0)^2}{r^5}$$

Demak,

$$\Delta\left(\frac{1}{r}\right)=\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial y^2}+\frac{\partial^2\left(\frac{1}{r}\right)}{\partial z^2}=-\frac{3}{r^3}+$$

$$+\left[\frac{(x-x_0)^2+(y-y_0)^2+(z-z_0)^2}{r^5}\right]=\frac{3}{r^3}-\frac{3}{r^3}=0$$

Haqiqatan ham $u=\frac{1}{r}$ qaralayotgan sohadagi M_0 nuqtadan tashqari barcha nuqtalarga garmonik funksiyadan iborat ekan.

2-Lemma.

$$u(x,y)=\ln\frac{1}{r}=\ln\frac{1}{\sqrt{(x-x_0)^2+(y-y_0)^2}}$$

Funksiya tekislikdagi $U_0(x_0,y_0)$ nuqtadan tashqari barcha nuqtalarda garmonik funksiyadan iborat.

Ya’ni

$$\Delta\left(\ln\frac{1}{r}\right)=\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial y^2}=0$$

Isbot: Haqiqatan ham $M_0 \neq M$ bo'lganligi sababli

$$r=\sqrt{(x-x_0)^2+(y-y_0)^2}$$

$$\frac{\partial r}{\partial x}=\frac{x-x_0}{r}; \quad \frac{\partial r}{\partial y}=\frac{y-y_0}{r}$$

ga kelamiz.

Endi $u=\ln\frac{1}{r}$ funksiyaning tegishli xossalarini hisoblaymiz. Ya'ni

$$\frac{\partial\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x}=\frac{\partial\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial r}\cdot\frac{\partial r}{\partial x}=\frac{1}{\frac{1}{r}}\left(-\frac{1}{r^2}\right)\frac{x-x_0}{r}=-\frac{x-x_0}{r^2}$$

$$\frac{\partial\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x}=\frac{x-x_0}{r^3}; \quad \frac{\partial\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial y}=\frac{y-y_0}{r^3};$$

$$\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}=\frac{\partial}{\partial x}\left[-\frac{\partial\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x}\right]=\frac{\partial}{\partial x}\left[\frac{x-x_0}{r}\right]=\frac{-r^2-(x-x_0)/r\cdot\frac{\partial}{\partial x}}{r^4}=$$

$$=\frac{-r^2-2(x-x_0)^2}{r^6}=\frac{1}{r^2}+\frac{2(x-x_0)^2}{r^4}\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}=-\frac{1}{r^2}+\frac{2(x-x_0)^2}{r^4}$$

oxirgi tengliklarni qo'shamiz:

$$\Delta\left(\ln\frac{1}{r}\right)=\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial x^2}+\frac{\partial^2\left(\ln\frac{1}{r}\right)}{\partial y^2}=-\frac{2}{r^2}+\frac{2[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2]}{r^4}=-\frac{2}{r^2}+-\frac{2}{r^2}=0$$

3 – Lemma: $u(x,y)=\ln r$ funksiya $M_0(x_0,y_0)$ nuqtadan tashqari barcha nuqtalarda garmonik funksiyadan iborat. Ya'ni

$$\Delta\ln r=\frac{\partial^2(\ln r)}{\partial x^2}+\frac{\partial^2(\ln r)}{\partial y^2}=0$$

Isbot: $M_0 \neq M$ bo'lganligidan $\frac{\partial r}{\partial x} = \frac{x - x_0}{r}$; $\frac{\partial r}{\partial y} = \frac{y - y_0}{r}$ ga kelamiz.

Endi $\ln r$ funksiyaning tegishli xosilalarini hisoblaymiz.

$$\frac{\partial(\ln r)}{\partial x} = \frac{\partial(\ln r)}{\partial r}; \quad \frac{\partial r}{\partial x} = \frac{1}{r} \cdot \frac{x - x_0}{r} = \frac{x - x_0}{r^2}$$

$$\frac{\partial(\ln r)}{\partial r} = \frac{y - y_0}{r^2}$$

$$\frac{\partial^2(\ln r)}{\partial x^2} = \frac{\partial}{\partial x}\left[\frac{\partial(\ln r)}{\partial x}\right] = \frac{\partial}{\partial x}\left[\frac{x - x_0}{\partial x}\right] = \frac{r^2 - (x - x_0)^2 / r \frac{\partial r}{\partial x}}{r^4} =$$

$$= \frac{r^2 - 2(x - x_0)^2}{r^4} = -\frac{1}{r^2} - \frac{2(x - x_0)^2}{r^4}$$

Demak,

$$\frac{\partial^2(\ln r)}{\partial^2 x} = -\frac{1}{r^2} - \frac{2(x - x_0)^2}{r^4}$$

$$\frac{\partial^2(\ln r)}{\partial^2 x} = -\frac{1}{r^2} - \frac{2(y - y_0)^2}{r^4}$$

Demak bularni qo'shamiz

$$\Delta \ln r = \frac{\partial^2(\ln r)}{\partial x^2} + \frac{\partial^2(\ln r)}{\partial y^2} = 0$$

Yuqorida ko'rdikki, vaqtga bog'liq bo'lmagan stasionar chegaraviy masalalarni tekshirishda Laplas va Puasson tenglamalarini

$$\Delta u = 0 \qquad (1.1.1)$$

$$\Delta u = -f(u) \qquad (1.1.2)$$

ko'rgan edik.

Qaralayotgan masala stasionar chegaraviy masalalardan iborat bo‘lganligi uchun bu masalalarda boshlang’ich shartlar ishtirok etmaydi. Xuddi yuqoridagilar kabi chegaraviy masalalarning ko‘rinishlarini qarab chiqamiz.

Ma’lumki,

$$\Delta u = 0 \qquad (1.1.3)$$

$$\Delta u = -f(u) \qquad (1.1.4)$$

(1.1.1) va (1.1.2) ko‘rinishdagi tenglamalar vaqtga bog’liq bo‘lmagan prosesslarning to‘liq tarqalishi qonuniyatlarni aniqlashga yetarli emas. Shu sababli bu qonuniyatlarning to‘la aniqlash uchun topilishi kerak bo‘lgan funksiyaning qaralayotgan sohaning sirtidagi qiymati ma’lum bo‘lishi kerak.

1) S sirt bilan chegaralangan T sohada shunday bir funksiyani $u = u(x, y, z)$ topish kerakki, bu natijada (1.1.1) yoki (1.1.2) shu sohaning sirtida $u / s = f_1(x, y, z)$ berilgan funksiyaga aylansin. Ya’ni quyidagi masalalarga kelamiz.

$$\left.\begin{array}{l} \Delta u = 0 \\ u / s = f_1(x, y, z) \end{array}\right\} \qquad (1.1.5)$$

$$\left.\begin{array}{l} \Delta u = -f \\ u / s = f_1(x, y, z) \end{array}\right\} \qquad (1.1.6.)$$

Bu keltirgan masalalarga elliptik tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan birinchi chegaraviy masala deb yoki Dirixle masalasi deyiladi.

2) S sirt bilan chegaralangan T sohada shunday bir $u = u(x, y, z)$ funksiyani topish kerakki, natijada bu funksiya (1.1.1) yoki (1.1.2) ni qanoatlantirib quyidagi chegaraviy shartni qanoatlantirsin.

$$\frac{\partial u}{\partial n} / s = f_2(x, y, z)$$

Bundagi

$$\frac{\partial u}{\partial n}/s=\left[\frac{\partial \varphi}{\partial x}\cos\alpha+\frac{\partial \varphi}{\partial y}\cos\beta+\frac{\partial \varphi}{\partial z}\right]/s$$

Tashqi normal bo‘yicha olingan hosilaning S sirtdagi qiymati, ya’ni quyidagi masalaga kelamiz.

$$\left.\begin{aligned}&\Delta u=0\\&\frac{\partial \varphi}{\partial \bar{n}}/s=f_2(x,y,z)\end{aligned}\right\} \tag{1.1.7}$$

$$\left.\begin{aligned}&\Delta u=-f\\&\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}/s=f_2(x,y,z)\end{aligned}\right\} \tag{1.1.8}$$

Bu masalalarga elliptik tipli tenglama uchun qo‘yilgan ikkinchi chegaraviy masala yoki Neyman masalasi deyiladi.

3) S sirt bilan chegaralangan T sohada shunday bir funksiyani, ya’ni $u=u(x,y,z)$ ni topish kerakki, natijada bu funksiya shu qaralayotgan sohada (1.1.1) yoki (1.1.2) tenglamani qanoatlantirib, quyidagi chegaraviy shart bajarilsin.

$$\left[\frac{\partial \varphi}{\partial \bar{n}}+ku\right]/s=f_3(x,y,z)$$

ya’ni quyidagi masalaga kelamiz.

$$\left.\begin{aligned}&\Delta u=0\\&\left[\frac{\partial \varphi}{\partial \bar{n}}+Hu\right]/s=f_3(x,y,z)\end{aligned}\right\} \tag{1.1.9}$$

Bu keltirgan masalalargga elliptik tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan uchinchi chegaraviy masala deb yuritiladi. Bunda ham uchinchi chegaraviy masala umumlashgan chegaraviy masaladan iboratdir. Bu masalalarning yechish jarayonida agar yechimi qaralayotgan T sohaning S sirtga nisbatan sohaning ichkarisida yoki tashqarisida topishni talab etiliishi mumkin. Shu sababli bu xildagi masalalarga ichki yoki tashqi masalalar deyiladi. Bu keltirgan masalalardagi f_1, f_2, f_3 lar sohaning sirtida berilgan funksiyalardan bo‘lib hisoblanadilar.

1.2-§. Grin formulalari va Garmonik funksiyalarning integral munosabatlari

Garmonik funksiyalarning xossalarini o‘rganish uchun avvalo ularning integral munosabatlarini qarab chiqamiz. Bu integral munosabatlarini keltirish uchun esa. Grin formulalaridan foydalanishga to‘g’ri keladi. Grin formulalarining o‘zlari esa Ostogradskiy formulasining xususiy hollaridan iboratdir. Ostogradskiy formulasining ma’nosi esa quyidagichadir. [6]

Faraz qilaylik P,Q,R funksiyalar $S+T$ yopiq sohada o‘zining bir tartibli hosilalari bilan uzluksiz funksiyalardan iborat bo‘lsin. Agarda S sirtda o‘tkazilgan tashqi normal n ni Ox,Oy,Oz o‘qlar bilan tashkil etgan burchaklari mos holda

$$\alpha=(n,x); \quad \beta=(n,y); \quad \gamma=(n,z)$$

lardan iborat bo‘lsin. Bu holda Ostogradskiy formulasi quyidagicha edi.

$$\iiint_T \left[\frac{\partial P}{\partial x}+\frac{\partial Q}{\partial y}+\frac{\partial R}{\partial z}\right]d\tau=\iint_S (P\cos\alpha+Q\cos\beta+R\cos\gamma)ds \qquad (1.2.1)$$

Bu tenglikning chap tomonidagi qavs ichidagi ifoda:

$$\bar{a}(x,y,z)=iP+jQ+kR$$

ko‘rinishdagi vektorlar maydonining yo‘nalishi yoki divergensiyasini bildiradi.

$$div\,\bar{a}=div(iP+jQ+\bar{k}\,R)=\frac{\partial P}{\partial x}+\frac{\partial Q}{\partial y}+\frac{\partial R}{\partial z}$$

skalyardan iborat.

$$\bar{n}=i\cos\alpha+j\cos\beta+k\cos\gamma$$

Bularni hisobga olganda (1) tenglikning o‘ng tomonidagi qavs ichidagi ifoda

$$(\bar{a},\bar{n}) = (iP + jQ + kR; \quad i\cos\alpha + j\cos\beta + k\cos\gamma) =$$
$$= P\cos\alpha + Q\cos\beta + R\cos\gamma = a_n$$

Shu ko‘rinishda (1.2.1) ning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi.

$$\iiint_T div a d\tau = \iint_S a_n d\tau \qquad (1.2.2)$$

Endi keltirilgan formulalardan foydalanib Grin formulasini hosil qilamiz. Buning uchun faraz qilaylik: S sirt bilan chegaralangan T sohada

$$\left.\begin{matrix} u = u(x,y,z) \\ v = v(x,y,z) \end{matrix}\right\}$$

Funksiyalar o‘zlarining argumentlari bo‘yicha ikkinchi tartibgacha differensiallanuvchi funksiyalardan iborat bo‘lsin. Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$\left.\begin{matrix} P = u\dfrac{\partial v}{\partial x} \\ Q = u\dfrac{\partial v}{\partial y} \\ Z = u\dfrac{\partial v}{\partial z} \end{matrix}\right\} \qquad (1.2.3)$$

(1.2.3) ni (1.2.1) ga qo‘yamiz.

$$\iiint_T \left[\frac{\partial u}{\partial x}\frac{\partial v}{\partial x} + u\frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + \frac{\partial u}{\partial y}\frac{\partial v}{\partial y} + u\frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + \frac{\partial u}{\partial z}\frac{\partial v}{\partial z} + u\frac{\partial^2 v}{\partial z^2}\right] d\tau =$$
$$\iint_S \left[\frac{\partial v}{\partial x}\cos\alpha + \frac{\partial v}{\partial y}\cos\beta + \frac{\partial v}{\partial z}coz\gamma\right] ds = d\iint_S u\frac{\partial v}{\partial \bar{n}} ds.$$

$$\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\Big|_S \left[\frac{\partial u}{\partial x}\cos\alpha + \frac{\partial u}{\partial y}\cos\beta + \frac{\partial u}{\partial z}\cos\gamma\right] / S$$

$$\iiint_T n\Delta V d\tau = \iint_S u\frac{\partial u}{\partial \bar{n}} d\tau$$

$$\left.\begin{aligned}\nabla u = gradu = i\frac{\partial u}{\partial x} + j\frac{\partial u}{\partial y} + k\frac{\partial u}{\partial z}\\ \nabla v = gradv = i\frac{\partial v}{\partial x} + j\frac{\partial v}{\partial y} + k\frac{\partial v}{\partial z}\end{aligned}\right\}$$

$$(\nabla u, \nabla v) = \frac{\partial u}{\partial x}\frac{\partial v}{\partial x} + \frac{\partial u}{\partial y}\frac{\partial v}{\partial y} + \frac{\partial u}{\partial z}\frac{\partial v}{\partial z}$$

Demak quyidagi masalaga kelamiz.

$$\iiint_T u\Delta v d\tau = \iint_S u\frac{\partial v}{\partial \bar{n}}d\sigma - \iiint_T (\nabla u, \nabla v)d\tau \qquad (1.2.4)$$

(1.2.4) dagi u va v larning o‘rinlarini almashtirib, quyidagilarga kelamiz.

$$\iiint v\Delta u d\tau = \iint_S v\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}d\sigma - \iiint_T (\nabla u, \nabla v)d\tau \qquad (1.2.5)$$

(1.2.4) va (1.2.5) ga Grinning birinchi formulasi deb yuritiladi. Endi (1.2.4) va (1.2.5) larni mos ravishda ayirib quyidagiga kelamiz:

$$\iiint_T (u\Delta v - v\Delta u)d\gamma = \iint_S \left[u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial v}{\partial n}\right]d\tau \qquad (1.2.6)$$

Bunga Grinning ikkinchi formulasi deyiladi. Agarda bu keltirilgan formulalarda qatnashayotgan funksiyalar

$$\left.\begin{aligned}u = u(x, y)\\ v = v(x, y)\end{aligned}\right\}$$

ko‘rinishda bo‘lsa, u holda (1.2.4) va (1.2.5) hamda (1.2.6) ning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi.

$$\iint_S u\Delta v ds_1 = \int_{C_1} u\frac{\partial v}{\partial \bar{n}}dc_1 - \iint_S (\nabla u, \nabla v)dS_1 \qquad (1.2.7)$$

$$\iint_S v\Delta I ds_1 = \int_{C_1} v\frac{\partial v}{\partial \bar{n}}dc_1 - \iint_S (\nabla v, \nabla n)dS_1 \qquad (1.2.8)$$

$$\iint_S [u\Delta v - v\Delta u] ds_1 = \int_{C_1} \left[u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial v}{\partial \bar{n}} \right] dS_1 \qquad (1.2.9)$$

$$\begin{cases} \Delta u = \dfrac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \dfrac{\partial^2 n}{\partial y^2}; \quad \dfrac{\partial v}{\partial \bar{n}} = \dfrac{\partial u}{\partial x}\cos\alpha + \dfrac{\partial u}{\partial y}\cos\beta \\ \nabla u = gradu = i\dfrac{\partial u}{\partial x} + j\dfrac{\partial u}{\partial y} \end{cases}$$

Ya’ni keltirilgan (1.2.4), (1.2.5) va (1.2.6) formulalar tekislik uchun Grin formulalaridan iboratdir. Endi shu funksiyaning ba’zi integral munosabatlarini hosil qilish masalasini qaraymiz.

Endi quyidagi formuladan foydalanib, [3]

$$\iiint_T [u\Delta v - v\Delta u] d\tau = \iint_S \left[u\frac{\partial v}{\partial n} - v\frac{\partial v}{\partial n} \right] ds \qquad (1.2.10)$$

Garmonik funksiyalarning qaralayotgan soha ichidagi ixtiyoriy nuqtadagi qiymatlarini integral orqali ifodalash mumkinligini qaraymiz. Buning uchun esa faraz qilaylik (1.2.10) tenglamada qatnashayotgan $u = u(M)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin. Ya’ni bu funksiya $T + S$ yopiq sohada o‘zining birinchi tartibli hosilasi bilan birgalikda uzluksiz hamda T sohaning ichida barcha argumentlari bo‘yicha ikkinchi tartibgacha differensiallanuvchi garmonik funksiyadan iborat bo‘lsin.

Endi sirt bilan chegaralangan T sohaning ichida qo‘zg’almas $M_0(x_0, y_0, z_0)$ va ixtiyoriy $M(x, y, z)$ nuqtalarni olamiz. Bu nuqtalar orasidan masalani esa quyidagicha belgilaymiz.

$$R_{mom} = \sqrt{(x-x_0)^2 + (y-y_0)^2 + (z-z_0)^2}$$

endi (1.2.1) formulada qatnashayotgan funksiyani esa quyidagicha belgilaymiz.

$$V = \frac{1}{\sqrt{(x-x_0)^2 + (y-y_0)^2 + (z-z_0)^2}} \qquad (1.2.A)$$

Yuqorida ko‘rdikki (1-lemma) agar $M_0 \neq M$ bo‘lsa (1.2.A) ko‘rinishdagi funksiya garmonik funksiyadan iborat bo‘lar edi.

Agarda $M_0 = M$ bo‘lsa, u holda $M_{mom} = 0$ bo‘lib, u holda (1.2.A) ko‘rinishdagi funksiya M_0 nuqtada cheksizga aylanadi. Bu holda (1.2.A) ko‘rinishdagi funksiyani (1.2.10) formulaga tadbiq qilish mumkin emas. (1.2.A) ko‘rinishdagi funksiyaga Grin formulasini tadbiq qilish uchun M_0 nuqtani markaz qilib E radiusli u K_E sfera bilan o‘rab olamiz. Bu sferaning sirti S_E bo‘lsin. T sohadagi shu sferani ajratib olamiz. Ya’ni sohada $T - K_E$ sirti esa $S + S_E$ sirtlar bilan chegaralangan. Demak (A) ko‘rinishdagi funksiya $T - K_E$ sohaning barcha nuqtalarda garmonik funksiyadan iborat bo‘ladi. Shu sababli (1) ko‘rinishdagi Grin formulasini

$V = \frac{1}{R}$ va $u = u(M)$ funksiyalarga tadbiq etamiz: ya’ni

$$\iiint\limits_{T-K}\left[u\Delta\left(\frac{1}{R}\right) - \frac{1}{R}\Delta u\right]d\tau = \iint\limits_{S+S_E}\left[u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left(\frac{1}{R}\right) - \frac{1}{R}\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\right]d\sigma =$$
$$\iint_S\left[u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left[u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left(\frac{1}{R}\right) - \frac{1}{R}\frac{\partial}{\partial n}\right]d\sigma\right] + \iint_{S_E} u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left[u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left(\frac{1}{2}\right) - \frac{1}{R}\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right]d\tau \tag{1.2.11}$$

Endi ε ga bog’liq bo‘lgan integrallarni alohida – alohida qaraymiz.

1) Ya’ni $V = \frac{1}{R}$ funksiya $T - K_E$ sohaning barcha nuqtalarda garmonik funksiyadan iboratdir.

2) S_ε sirtga o‘tkazilgan tashqi normal $\bar{n}$ ning yo‘nalishni shu sferaning radiusi yo‘nalishiga teskari deb qabul qilamiz, ya’ni

$$\frac{\partial}{\partial n}\left(\frac{1}{R}\right)/S_\varepsilon = -\frac{\partial}{\partial R}\left(\frac{1}{R}\right)/S_\varepsilon = \frac{1}{R^2}/S_\varepsilon = \frac{1}{\varepsilon^2}$$

3) $\iint\limits_S u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left(\frac{1}{R}\right)d\tau = \frac{1}{\varepsilon^2} = \iint\limits_{S_E} u d\tau = \frac{u*}{\varepsilon^1}\iint\limits_{S_E} d\delta$

($u*$ - esa $u = u(M)$ funksiya S_ε dagi o‘rtacha qiymati sferaning sirtining bildiradi.)

$$\iint_{S_\varepsilon} d\tau = 4\pi\varepsilon^2 = \frac{4\pi\varepsilon^2 \cdot u*}{\varepsilon^2} = 4\pi u*$$

4) $\iint_{S_\varepsilon} \frac{1}{R}\frac{\partial u}{\partial \bar{n}} d\tau = \frac{1}{\varepsilon} \cdot \iint_{S_\varepsilon} \frac{\partial u}{\partial \bar{n}} d\tau = \frac{1}{\varepsilon}\left(\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right)\iint_{S_\varepsilon} d\tau = \frac{1}{\varepsilon}\left(\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right)4\pi\varepsilon^2 = 4\pi\varepsilon\left(\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right)$

(esa $\left(\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right)$ ning S_ε dagi o‘rtacha qiymati)

Bu topilgan ifodalarni (1.2.11) ga qo‘yamiz. Ya’ni (1.2.11) ning davomi

$$\iiint_{T-S_\varepsilon}\left[u\Delta\left(\frac{1}{R}\right) - \frac{1}{R}\Delta u\right]d\tau = \iint_S \left[u\frac{\partial}{\partial \bar{n}}\left(\frac{1}{R}\right) - \frac{1}{R}\frac{\partial u}{\partial n}\right]d\tau + 4\pi u* - 4\pi\varepsilon\left(\frac{\partial u}{\partial n}\right) \qquad (1.2.12)$$

Bu tenglikdan $\varepsilon \to 0$ da limitga o‘tkazamiz.

$$\lim_{\varepsilon\to 0}(t - K_E) = T$$

1) $\lim_{\varepsilon\to 0} u* = u(M_0)$

$$\lim_{\varepsilon\to 0} \varepsilon\left(\frac{\partial u}{\partial \bar{n}}\right)^* = 0$$

Bularni hisobga olganda (1.2.12) ning ko‘rinishi quyidagidan iborat bo‘ladi.

$$-\iiint_T \frac{1}{R_{M_0M}} \cdot \Delta u(M) d\tau_\mu =$$

$$= \iint_S \left[u(P)\frac{\partial}{\partial n_p}\left(\frac{1}{R_{M_0p}}\right) - \frac{1}{R_{M_0p}}\frac{\partial u}{\partial \bar{n}_p}\right]d\tau_p + 4\pi u(M_0)$$

$$4\pi u(M_0) = \iint_S \left[\frac{1}{R_{M_0p}}\frac{\partial}{\partial \bar{n}} - u(p)\frac{\partial}{\partial \bar{n}_p} \cdot \frac{1}{R_{M_0p}}\right] - \iiint \frac{\Delta u(\mu)}{R_{M_0p}} d\tau_M \qquad (1.2.13)$$

yoki

